E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

ABDUQAYUM YO‘LDOSHNING "TIMSOHNING KO‘Z YOSHLARI” VA “OTCHOPAR YOXUD O'N UCHINCHI UY"ASARLARI SYUJETI TAHLILI

Zaynobidddinova Zuhra

Farg‘ona davlat universiteti talabalari

Murotova Dilnozaxon

Farg‘ona davlat universiteti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abduqayum Yo‘ldoshning bir qancha asarlari tahlil etiladi va taqqoslanadi.

Kalit so‘zlar: Xronikali,badiiy asar,ekspozitsiya,syujet.

Syujet-(frans-predmet,mazmun,narsa)- Badiiy asar mazmunini tashkil etadigan bir - biri bilan o‘zaro bog‘liqlikda kechadigan qahramonlar o‘rtasidagi aloqalardan tashkil topgan voqealar tizimidir .Syujet- asar badiiyligini ta’minlovchi asosiy omillardan hisoblanadi .Abduqayum Yo'ldoshning "Timsohning ko'z yoshlari " va "Otchopar" qissalari syujetiga to'xtaladigan bo'lsak, asar voqealari ózaro munosabatiga ko‘ra xronikal syujet sirasiga kiradi.Voqealar asosan birin -ketinlikda ,bir- biriga vaqt nuqtai nazaridan bog‘langan holda kechadi ."Timsohning ko'z yoshlari" asari ekspozitsiyasi asarni bizga hikoya qilib beruvchi qahramonimizning bizga asarda o'zaro ziddiyatga keladigan ,voqealar rivojini boğlaydigan shaxslar bilan qisqa tanishtirish va voqealar asosan sodir bo‘ladigan muhitni ta’riflash ,ya'ni gazeta tahririyati va shu ish bajariladigan o‘rinni va undagi ishchilarni ta’riflashdan boshlaydi.

"Otchopar qissasi ham aynan xronikal syujet tipiga xosdir .Unda yangı qurilayotgan ko‘p qavatli uylar va niması bilandir boshqa uylardan ajralib turadigan 13-uy, ya'ni boshqa uylar orasida birgina shu uyning teskari tomonga qarab qurilgani ham asar bosh qahramonining keyingi taqdiriga bir ishora qiladigan detal sifatida foydalaniladi.Ushbu qissa ekspozitsiyasida voqealar sodir bo‘ladigan joy,obrazlar atroflicha yoritiladi.Asar tuguni Qo‘ziboy ,tanasi qora bo‘lganligidan Qoraboy laqabini olgan yengil tabiat savdogar va asarda qo‘li ochiq ,o‘zini dunyoni suv bossa to‘pig‘iga chiqmaydigan qilib ko‘rsatishga harakat qiladigan ,13-uyning 9-qavatida istiqomat qiluvchi boy ayol,Nozima, o‘rtasidagi ziddiyatda namoyon bo‘ladi.Qoraboy ayolning Katta qarz bo‘lib qolganidan foydalanmoqchi bo‘ladi va hech qaysi tanishidan qarz ololmay noiloj o'zidan qarz sóragan Nozimaga u bilan birga bo‘lish evaziga istagancha pul berishini aytganda janjallashib ketishadi va Qoraboy Nozimaga "agar aytganimni qilmasam (oldimga emaklab kelasan) onam go‘rda tinch yotmasin! Onamning arvohi ursin meni "-deya qasam ichadi.Shu maqsadni amalga oshirish uchun ancha harakat qiladi va Nozima yashaydigan uyning domkomi,Osiyo opa,bilan bir mashina evaziga unga yordam berishini so‘raydi.

"Timsohning ko‘z yoshlari " qissasi tugunini kichik musahih qiz Munisaga er topishga harakat qiladigan Salomat opaning ,tahririyat mudirasi, harakatlari orqali ifoda etiladi.Salomat opa hayotdan nolib yashaydigan ,doim har narsadan shikoyat qilib yuradigan, etiborli jihati tush tabirlari-yu munajjimlar bashoratiga astoydil ishonadigan inson sifatida gavdalantiriladi va ayni hayotdan nolib yashash jihatidan "Otchopar" dagi Osiyo opa bilan bir xil xarakterga egalarini ayni voqealar chigallashishiga sabab bóladigan obraz sifatida gavdalantirganini ko‘ramiz .Salomat opa Munisaga agar tushida tumsohni ko‘rsa ,ertasiga o‘z shahzodasini uchratishini uqtiradi va ushbu zakaz tushni ko‘rishi uchun har gapida tumsohni gapiradi,hatto ish joyida Munisaning ko‘zi tushadigan joyga bahaybat tumsohning rangli suratini ham ilib qo‘yadi.Bu yog‘iga voqealar rivoji Munisaning" zakaz tush" ni ko‘rishi va ertasiga o‘sha "shahzoda"ni uchratishi hayotini tubdan o‘zgarib yuborishi voqealar rivojini yanada shiddatliroq

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

darajaga olib keladi .Bu "shahzoda" ning o‘z xotini bo‘lishiga qaramasdan bir bechora qizni aldashi va o‘z maqsadiga erishishi, bunda Salomat opaning istabmi yo istamasdanmi "shahzoda"ga yordami tekkanini ko‘ramiz .Voqealar shu zaylda keskinkashib kulminaysiyani shakllantiradi Munisaning xo‘rlangan,kaltaklangan ,orzulari armonga aylanib ,uning "shahzoda" ya'ni asarida Posbon sifatida tilga olinadigan bu yomon kimsadan farzand kutayotgani ma'lum bo‘ladi.Baxtga qarshi bu begunoh go‘dakning tug‘ilishini hech kim xohlamasdi,Posbon va Salomat opa birinchi kóngillilardan edilar.Bechora Munisaning oxir oqibat bu qiynoqlarga ,jigarbandidan ayrilganiga chiday olmay ruhiy kasallar shifoxonasiga tushishi va bizga voqealari so‘zlab berayotgan muallif musahih Munisani ko‘rgani borganda qiz unga " o‘shanda... o‘shanda timsoh...yig‘layotgandi...meni yeb qo‘yib yig‘layotgandi "deb yig‘lashi va og‘ir ruhiy holda kasalxonada qolishi bilan asar yakunlanadi .Shu o‘rinda yozuvchi Salomat opaning hech nima bo‘lmaganday yashashda davom etishi , yangı kelgan musahih qiz Munirani ham qandaydir tush tabirlari-yu ,munajjimlar bashorati haqidagi ishontirishini kórib ,but voqealar unga dars bólmaganini ko‘rsatadi .E’tiborli jihati shundaki ,asar sarlavhasi uchun olingan ibora mazmuni va fandagi tumsohning ko‘z yosh to‘kish xarakterlari orqali bir bechora qiz hayotining barbod bo‘lishiga sababchi bo‘lgan ikki inson xarakterini ochish mumkin."Tumsohning kóz yoshlari" iborasi Fransuz ,ingliz,rus va ayrim xalqlarda yolg‘ondan o‘zini achinganday ko‘rsatadigan ,atrofdagilarga o‘zining bechora ekanini ko‘rsatishga harakat qiladigan ,aslida esa imdat bo‘lmagan ikkiyuzlamachi insonlarni anglatadi.Ushbu mazmun orqali Salomat opaga ishora qilinadigan bo‘lsa ,fanda timsohning o‘z o‘ljasini yeb bo‘lgandan so‘ng tanasidagi ortiqcha tuzlar ko‘z yosh bo‘lib chiqishi ,bu yirtqichning achinib emas fizik jarayon orqali ko‘z yosh to‘kishi "shahzoda "xarakterini ochib beradi.

"Otchopar" qissasi kulminaysiyasiga to‘xtaladigan bo'lsak,Osiyo opa va Qoraboyning rejalari asosida Nozimani aldab ketgan Florani o‘lmaganini ,uning qayerda ekanini Qoraboy bilishi hamda uning Nozimaga beg‘araz qarz berib turishi mumkinligi ,janjal bólgan kun Qoraboy o‘sha so‘zlarni jahl ustida aytganini Osiyo opa Nozimaga hiyla bilan tushuntirib ,uni bir mahalladagi kichik uyga olib boradi va Nozimaning ustidan qulflab , kelishuvga ko‘ra 3 soat emas 5 soat dan keyin manzilga qaytib keladi.Yerda sochilib yotgan dollarlarni ko‘radi va ichkarida Nozimani jinni bo‘la yozganini , qattiq xo‘rlanganini va jon achchig‘ida Qoraboyni tova bilan boshini majaqlab o‘ldirganini ko‘radi va yuragi yorilar holatda uyi tomon chopadi va kun bo‘yi uyda bo‘lganini tasdiqlaydigan guvoh topib qo‘yishni rejalashtirib ,yerda sochilib yotgan dollorlarni ololmaganiga unchalik afsuslanmay ,eson-omon qutilib qolganiga shukur qilib uyga yetib kelganda ,butun tovarlari yonib ketganidan o‘zining ham qosh kipriklari kuygan ,yuzlari qoraygan , xotiniga vafodor ,sal yuvoshroq Samad ya'ni Nozimaning eri xotinini izlayotganini ko‘rdi va Osiyo opa uni qoraroq odam bilan bir uyga kirib ketganini aytib ,bu gapni undan eshitganini xotiniga aytmasligini qo‘shib qóydi.Uyning pastida g‘iybatlashib ótiradigan bekorchi xotinlarga so‘ramasada kun bo‘yi bozorda yurgani , narxlar qimmatligidan hech narsa ololmay qaytganini bot - bot takrorladi va uyiga kirib ketadi.G‘iybatchi xotinlar tez orada Samad Qoraboydan qarz so‘raganda u bilan janjallashib ketganlari va Qoravoyni chavaqlab tashlagani, bor pul va qimmatbaho narsalarini olib uyni Qoraboyga qo‘shib yoqib yuborganini ,20 yilga qamalganini bilib olishdi.Tergov chog‘ida eri Nozimani Almatigami, Bishkekkami ketganini aytadi ,lekin undan darak ham yoq .Osiyo opa esa bu qilgan ishlaridan hech qanday foyda ololmaganiga o‘zini koyir, tinmay yig‘lardi ,natijada ko‘zi ko‘r bo‘lib ,tinmay uvvos silib yig‘laydigan bo‘lib qoladi.Yaqinlari uni ruhiy kasallar shifoxonasiga joylashadi.13- uy pastida doim hammaning g‘iybatini qilib o‘tiradigan ayollar to‘dasining boshlig‘i Osiyo opa bu ahvolga tushgach uning o‘rniga Salima opa o‘tadi .U Osiyo opa yotgan kasalxonaga tez-tez borar lekin u yotgan xonaga kirmas ,bemorlar tashqariga sayrga chiqqandagina uni bir chekkadan kuzatardi.Shunday kunlarning birida 13-xonadagi bir ayol Salima opaga tanishday tuyildi Va hamshiralardan u haqida sóradi .Hamshiralar u bemorning qandaydir bir boy ayol ekani, rashk qurboni bólgani ,ayolning tinmay yig‘lab men qamoqxonaga borishim kerak deyaverishini

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

aytishdi.Hamshiralar bu juvon bir paytlar otchoparning eng boy ayoli bo‘lganini, lekin Hamshiralar uni ko‘rgani bir yig‘loqi chol va hasta ayol kelishi,shu tufayli uning boy bo‘lganiga ishonmasliklarini aytishadi.Salima opa qachondir bir kun o‘zi ham shu joyga tushishini bilsada ,tan olgisi kelmay Nozima bilan xayolan vidolashadi.Asar ayanchli tarzda yakunlanadi.

Abduqayum Yo‘ldoshning bu ikki qissalarini deyarli suyjet xususiyati jihatidan bir xil ekanligini ,ikkisida ham hor bo‘lgan ayol qismati va bu voqealarga aynan boshqa bir ayol qisman bo‘lsada sababchi bo‘lgani ,qismati ,xarakteri bir-biriga o‘xshash xudbin erkaklarning aybi tufayli voqealar shunday yakun topganini ko‘ramiz.Nafaqat asarlarning aynan yozilgan vaqti-2000-2001- yillardagi, balki, hozirgi davr uchun ham og‘riqli muammolarni bosh mavzuga ko‘tarib ,uncha murakkab bólmagan syujet orqali asarni yoritgani ,yozuvchining mahoratidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abduqayum Yo‘ldosh.Timsohning ko‘z yoshlari. (qissalar), “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2003 y.

2.Tamaz Mchedlidze. Otorinolaringologiya atamalarining entsiklopedik lug'ati. Publishing Solutions, 2017.

3.Dilmurod Quronov "Adabiyotshunoslik luğati"-Toshkent:Akademnashr .2010.

4.Abdulla Ulug'ov "Adabiyotshunoslik nazariyasi" G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.Toshkent ,2017

WORDLY
KNOWLEDGE